



MUSIQA

FAOLIYAT

ISITILANMALAR

YOZ DAVRI

TAYYOR

GURUR



TAYYORLOV GURUH BOLALARI BILAN MUSIQA FAOLIYATLARINI O‘TKAZISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Olti-yetti yoshli bolalar tarbiyachilar topshiradigan vazifalarning mohiyatini tushunadilar, ko‘rsatmalarni mustaqil bajaradilar. O‘z xatti-harakatini boshqarish ko‘nikmasi bolaning diqqatiga, xotirasiga, fikrlashiga ta‘sir etadi.

Bolalarda turli xarakterdagi musiqalarga nisbatan faol qiziqish va emotsional ta‘sirchanlik o‘sadi, musiqiy idroki rivojlanadi, qo‘shiqning qaysi qo‘shiq ekanini kirish qismi yoki umumiy ohangidan bilib olishni o‘rganadilar. Musiqa taassurotlarini boyitish, musiqiy tovushlar baland-pastligi, ritm, temбри, dinamikasini ajrata olish qobiliyati rivojlanadi, turli shakllar, janrlar (marsh, raqs, alla) haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Tovushni to‘g‘ri hosil qilish, sof intonatsiya, musiqa ostida ritmik harakatlarning ifodaliligi, raqs va o‘yinlarda obrazli harakatlar, bolalar cholg‘u asboblarning tovush tembrlarini ajrata bilish, ijro etish kabi ijrochilik malakalari shakllanadi.

Yetti yoshli bolalarning harakatlari birmuncha aniq va uyg‘unlashgan bo‘ladi. Kuch, tezlik, chidamlilik va chaqqonlik kabi sifatlar ortadi. Xayolda o‘ynab o‘tirish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Ayniqsa o‘g‘il bolalarda mustaqil harakat qilish faoliyati ortadi. Bu yoshdagi bolalar o‘z harakatlarini baholay oladilar. Kattalar bilan shaxsiy muloqot qilish va ishonchli munosabatlarga intilish kuchayadi. Maktabga tayyorlov guruhida bolalar turli faoliyatlarni bajaradilar, faoliyatlar jarayonida aniq umumlashgan bilim va ko‘nikmaga ega bo‘ladilar.

Eshitish qobiliyati takomillashadi. She‘rni tinglash ko‘nikmasi shakllanadi, musiqaga emotsional qiziqishi ortadi, musiqa tinglash va musiqani ritmik his etish ko‘nikmasi mustahkamlanadi.

6—7 yoshda bolalar kuyni anglagan holda qo‘shiq kuylashadi va bolalar musiqa cholg‘u asboblari ohanglarni eslab ijro etadilar.

Bu guruhda musiqa faoliyatlarini o‘tkazishdan maqsad va ko‘zda tutilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- musiqiy janrlarni ajrata bilishga, musiqa mazmunini tushunishga o‘rgatish;
- musiqaning kirish qismi, boshlanishi, yakuni, naqarot, tempi, dinamikasini farqlashga o‘rgatish;
- qo‘shiqni tabiiy, yengil, jarangdor, yoqimli ovozda kuylash. Musiqa jummalari orasida yelkalarni ko‘tarmasdan nafas olish, so‘zlarni aniq, ravon talaffuz qilish, qo‘shiqni barobar boshlab, barobar tugatishga o‘rgatish;
- musiqaning turlicha xarakteri, dinamikasi va registrlariga mos ifodali hamda erkin harakat qilishga o‘rgatish;
- bolalarni tantanavor, bayramona ritmda, shiddath va kichik qadamda yurish kabi harakatlarni musiqa xarakteriga mos ravishda bajarishga o‘rgatish;
- bolalarning cholg‘ularda ijro etilgan kuy ohangiga qiziqishini kuchaytirish, turli cholg‘ularda chalishning eng sodda usullarini o‘rgatish. Ansambl va orkestrda kuyni aniq ifodalab ijro etish.

“Tasdiqlayman”

_____ - sonli MTT
direktori _____

20__ YIL YOZ DAVRI TAYYORLOV GURUHGA
Musiqqa ta'lim berish uchun _____ ning
TAYYORLASH REJASI

№	Oy mavzusi	Hafta mavzusi	Yozuv	Kichik guruh	Vahti	Izoh
1.	Iyun Baxtli bolalik	1-hafta Baxtli bolalik	Guruh xonasida	“Diloromning qo‘shig‘i” tinglash		
				“Surxoncha” raqs.		
		2-hafta Gulzordagi gullar	Guruh xonasida	“Gulzor ayli” qushigini yod olish.		
				“Gulzor ayli” bilan raqs “		
		3-hafta Jonli va jonsiz tabiat	Yozgi ayvonchada	“Jonli va jonsiz qo‘shig‘i” yod olish.		
				“Ayiqpichilarning mas’alimiy o‘yin.		
	Iyul Quvnoq yoz	4-hafta Ertak qaxramonlari mexmonda	Guruh xonasida	“Hayvonlar qo‘shig‘i” yod olish.		
				“G‘ozlar-g‘ozlar” o‘yini uchun misolida.		
				“Yo‘q-yo‘q” qo‘shig‘i yod olish.		
		1-hafta Yoz o‘tmoqda soz	Guruh xonasida	“Bog‘cha opa bo‘lmang, opa” qo‘shig‘i musiqada aytish.		
		2-hafta Biz yosh	Guruh	“Sport” qo‘shig‘i asosida raq.		

2.		sportchilarning	xonasida	“Davra raqsi” ritmik harakatlar orqali raqs		
		3-hafta Yozgi yonchada uchrashuv	Guruh xonasida	“Oftob va odob” qo‘shiq yod olish		
				Takrorlash		
		4-hafta Suvning xususiyatlari	Guruh xonasida	“Sharshara” qo‘shig‘ini yod olish.		
3.	Avgust Quvnoq va sog‘lom bolalar	1-hafta Vitaminlarning sarguzashtlari	Guruh xonasida	“Ko‘z boylash o‘yini” musiqa asosida.		
			Guruh xonasida	“Ko‘z boylash o‘yini” musiqa asosida.		
		2-hafta Buni bilish foydali	Guruh xonasida	“Ko‘z boylash o‘yini” musiqa asosida.		
			Guruh xonasida	“Ko‘z boylash o‘yini” musiqa asosida.		
		3-hafta O‘ynab o‘rganamiz	Guruh xonasida	“Ko‘z boylash o‘yini” musiqa asosida.		
			Guruh xonasida	“Ko‘z boylash o‘yini” musiqa asosida.		
		4-hafta Yoz o‘tdi soz	Guruh xonasida	“Ko‘z boylash o‘yini” musiqa asosida.		
			Guruh xonasida	“Ko‘z boylash o‘yini” musiqa asosida.		

Iyun oyi

Oy mavzusi: Baxtli bolalik

1-Hafta mavzusi: Baxtli bolalik

Mayzu: “Diloromning qo‘shig‘i” tinglash. “Baxtli bolaligim” raqs.

O‘rnatilgan joyi: guruh xonasida

Maqsadi: “Diloromning qo‘shig‘i” tinglash. “Baxtli bolaligim” raqsini o‘rgatish, harakatlarda qatnashish, o‘zaro hamkorlikda o‘yinlash, musiqa tinglashda fikrlash, musiqa asboblari ovozlari farqlashga o‘rin berish, qo‘shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish, musiqa savodini oshirish, bolalarning musiqa cholg‘u asboblari bilan jo‘r bo‘lish, qo‘shiq matni haqidagi fikrlarni bolalar bilan bahs etish, musiqa va o‘yinlarda aqliy va estetik qobiliyatini, irodasini, ijodkorligini rivojlantirish.

tarbiyaviy maqsadi: bolalarning o‘zlarining talabida nafosatga mehr uyg‘otish, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash, va bolalarning faoliyatlar jarayonida bolalarda milliy musiqa ohanglari yordamida zaruriy bilim o‘rnatish, fikrlantirish, musiqa bo‘lgan qiziqishini oshirish, atrof olam bilan tanishtirish, bolalarning jismoniy harakatlarni bajarish, shovqinli va musiqiy asboblari bilan tanishish, bolalarning o‘yinchoqlarini va o‘yinchoqlarni avaylab asrash hissi tarbiyalash.

rivojlantiruvchi: bolalarning shovqinli harakatlari rivojlantirish, idroki va hissiyotlarini tarbiyalash, kuy va qo‘shiqlarni tinglash, bolalarning qo‘shiqlarni aytishga o‘rgatish, musiqiy faoliyatini rivojlantirish.

Kerakli jihoz: mavzuga oid ko‘ngazmalar, musiqa asboblari va shovqinli musiqa asboblari.

Qo‘llaniladigan usul: ko‘rsatish, bolalarning o‘zlarining fikrlash, tushuntirish, savol-javob, she‘riy uslub, ijodkorlik, rag‘batlantirish, qisqacha ko‘rsatish va ko‘rsatish.

Kutilayotgan natijalar:

- Lug‘at boyitiladi.
- Intro etish rivojlantiriladi.
- Musiqa idrok etiladi.
- Musiqa tassavvurlar kengaytiriladi.
- Mayda va yirik motorikalar rivojlantiriladi.
- Artikulyatsiya va tovushni to‘g‘ri tallafuz etishga erishiladi.
- Jismoniy rivojlantiriladi.
- Sahna madaniyati va nutqi o‘stiriladi.
- Teatrlashtirish ijodi rivojlantiriladi.
- Shovqinli musiqa asbobida jamoa bo‘lib chalish shakllantiriladi.

Faoliyatni borishi:

Musiqa rahbari bolalarga “Diloromning qo‘shig‘i” qo‘shig‘ini aytib beradi. Bolalardan so‘raydi – Qo‘shiq yoqdimi?

Endi kim, musiqa faoliyatida “Diloromning qo‘shig‘i”ni aytib berishni xoxlaydi, marhamat eshitamiz. Bolalar “Gul yaxshi lola yaxshi”ni yod olishadi. “Diloromning qo‘shig‘i”ni kuylashga harakat qilib o‘zlari bilganча galma-galdan aytishadi.

Faoliyat oxirida musiqa rahbari qo‘shiq aytgan bolalarni maqtaydi.

Katta bo‘lsanglar mohir qo‘shiqchi bo‘lasiz - deb yaxshi tilaklar bildiradi.

So‘ng musiqa rahbari “Diloromning qo‘shig‘i” qo‘shig‘ini bolalar bilan birga kuylashadi. Faoliyat so‘ngida “Baxtli bolaligim” qo‘shig‘ga raqsga tushadilar.

Faoliyatni yakunlash: faoliyatda aktiv qatnashgan bolalarni shirin so‘zlar bilan rag‘batlantirib, faoliyatni mustaxkamlab yakunlaymiz.



Iyun oyi

Oy mavzusi: Baxtli bolalik

2-Hafta mavzusi: Gulzordagi gullar

Mavzu: “Lola sayli” qushigini yod olish. “Gullar bilan raqs”

O‘tish joyi: guruh xonasida

Maqsad:

ta’limiy: bolajonlarga “Lola sayli” qo‘shig‘ini yod oldirish. “Gullar bilan” raqsini o‘rgatish, harakatlarda musiqadan foydalanish, musiqa tinglashda fikrlash, musiqa asboblari ovozlari farqlashga o‘rgatish, qo‘shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish, musiqa savonasi oshirish, bolalar musiqa cholg‘u asboblari bilan jo‘r bo‘lish, qo‘shiq matni haqidagi fikrlarni o‘z ongiga singdirish, raqs va o‘yinlarda aqliy va estetik qobiliyatini, irodasini, ijodkorlikni rivojlantirish.

tarbiyaviy: bolalar qalbida nafosatga mehr uyg‘otish, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash, o‘qish, o‘yinlash, faoliyatlar jarayonida bolalarda milliy musiqa ohanglari yordamida zaruriy bilim, bilimni shakllantirish, musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshirish, atrof olam bilan tanishish, baxtli hayoti va jismoniy harakatlarni bajarish, shovqinli va musiqiy asboblari bilan tanishish, musiqa asboblari va o‘yinchoqlarni avaylab asrash hissiyatini tarbiyalash.

rivojlantiruvchi: bolalar musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, idroki va hissiyotlarini tarbiyalash, kuy va qo‘shiqlarni tinglashga o‘rgatish, qo‘shiqlarni aytishga o‘rgatish, musiqiy faoliyatini rivojlantirish.

Kerakli jihoz: mavzuga oid rasmlar, musiqa asboblari va shovqinli musiqa asboblari.

Qo‘llaniladigan usul: ko‘rsatma usuli, tushuntirish, savol-javob, she’riy uslub, ijodkorlik, rag‘batlantirish, o‘yinchoqlar bilan o‘yinlash.

Kutilayotgan natijalar:

- Lug‘at boyitiladi.
- Ixtiro etish rivojlantiriladi.
- Musiqa idrok etiladi.
- Musiqa tasavvurlar kengaytiriladi.
- Mayda va yirik motorikalar rivojlantiriladi.
- Artikulyatsiya va tovushni to‘g‘ri tallafuz etishga erishiladi.
- Jismoniy rivojlantiriladi.
- Sahna madaniyati va nutqi o‘stiriladi.
- Teatrlashtirish ijodi rivojlantiriladi.
- Shovqinli musiqa asbobida jamoa bo‘lib chalinish shakllantiriladi.

Faoliyatni borishi:

Musiqaviy ritmik harakat. marsh, yugurish, sakrash, salmoqli qadam tashlash, qadam moslab qadam tashlash, deysinib yurish, nafas olish mashqlari va yana marsh musiqasi bilan o‘z joylarini egallaydilar.

Musiqa rahbari : Qani bolalar aytinglar-chi, musiqa olami bizga nimani o‘rgatadi.

Bola : Faoliyatlar ichida, musiqa quvnoq fandır.
Ohanglar olamining, barcha sirlari jamdir.
Bu faoliyat bizlarga o‘yin, raqs, qo‘shiqlar ,
Sirlarin o‘rgatadi, nazariy bilimlarni,
Jamlashni o‘rgatadi.

Musiqa rahbari : Raxmat sizga bolalar, dono zukko lolalar.
Musiqada bolalar etti nota mavjuddir.
Ettita notalardan quvnoq kuylar taralur.
Qani notalar chiqing o‘zni bir tanishtiring.

Musiqa ostida notalar chiqadilar.

- “ DO “ nota :** Biz etti aka- uka yashaymiz birgalikda.
Tovushqator uyimiz do, re , mi, fa,
Sol, Iya , sidur nomimiz!
Dorboz, doira, donlarda, uchrayman men so‘zlarda.
Menda boshlanur ohang, “ do “man doim hamohang.
Necha asrdan buyon , biz do‘stimiz insonning,
Qutlamoq uchun keldik, bugun jami mehmonni.
- “ RE “ nota :** Mening nomim “re” bo‘lur,”do” kuchiga kuch qo‘shur.
Kuychangman dovyurakman, hamma bilan inoqman.
Biz etti paxlavonmiz, sir asrorga makonmiz.
Necha- necha jumboqni, hal etgan qahramonmiz
- “ MI “ nota :** “Mi” dur mening ismim, o‘zimga tushgan jismim.
Sanoqda men uchunchi, kuylarningdir tayanchi.
Sanab hisob qiladi musiqa tirik jon.
Qadim zamondan beri, ishlaymiz tezu oson.
- “ FA “ nota :** “Fa” notasi men o‘zim, derlar meni to‘rtbonu.
O‘zbekiston madhiyasi, boshlanur mendan doim.
Qancha bastakor bizga, atab asar yaratdi.
Shu asar dong‘imizni bor olamga taratdi.
- “ SOL “ nota:** Mening nomim “sol” nota, notalar sardoriman.
Musiqa olamining, kalit debochasiman.
Sanab ilm boyitar, bu etti mashhur nota.
Musiqa bilan qiziq, manolidir bu olam.
- “ LYa “ nota :** Tovushqator oltinchisi “Iya” notasi bo‘laman.
Chaqqonlik bilan tezda, kuylarga aylanaman.
Bo‘lmasa gar musiqa, ne bo‘lur edi dunyo.
Xatto musiqa bilan, engilgandir har- bir yov.
- “ SI “ nota :** Men esa “si” notasi, etti polvon bo‘laman.
Menda tugar masofa, eng kenjasi bo‘laman.
Bu merosni o‘rganing,quvnoq kuylar yarating
Musiqa bo‘stonini, yashnating, obod eting.

Musiqa rahbari : Bolalar, endi “Lola sayli” qo‘shig‘ini takrorlaymiz. (Ijro).
Bu bizning milliy cholg‘ularimizdan doira. Hozir hammamiz “Lola sayli” kuyiga chapak chalib jo‘r bo‘lamiz. (Ijro).

Endi o‘rnimizdan turib,
marsh ostida doira hosil
qilamiz. “Gullar bilan”
kuyiga raqsga tushamiz.

Musiqa rahbari: – Aziz
bolajonlar, Sizlar
O‘zbekistonning ertangi
yorug‘ kunisiz, uning
egalarisiz. Ona Vatanimiz
bilan faxrlanishimiz,
g‘ururlanishimiz, uning har
qarichini muqaddas bilib,
ko‘z qorachig‘idek
asramog‘imiz kerak,
Vatanimizni doimo sevib,
ardoqlaylik. Shuning bilan bugungi faoliyatimizga yakun yasaymiz. Xayr, salomat bo‘ling.

Bolalar musiqa sadolari ostida chiqib ketadilar, shu tariqa faoliyatga yakun yasaladi.



veb-saytimiz: Zokirjon.com

**Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.**

Zokirjon Admin bilan

**+99891-328-88-38 nomerga telegramdan
yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab
telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.**

**Tayyorlov guruhlariga yoz davri musiqa
faoliyat ishlanmalarini to'liq holda olish
uchun telegramdan yozing.**




Narxi: 20 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.**

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.**

Internet veb-saytlarga joylamang.

**Telegram orqali kanal va gruppalariga
tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**